

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2020F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

SHIRINOV ANVAR QANOATOVICH

**MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA INSON TARAQQIYOTI
KONSEPSIYASINI AMALGA OSHIRISHNING XUSUSIYATLARI
(IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL)**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
philosophical sciences**

Shirinov Anvar Qanoatovich

Markaziy Osiyo davlatlarida inson taraqqiyoti konsepsiyasini amalga
oshirishning xususiyatlari (ijtimoiy-falsafiy tahlil)..... 3

Ширинов Анвар Каноатович

Особенности реализации концепции человеческого развития в странах
Центральной Азии (социально-философский анализ) 23

Shirinov Anvar Qanoatovich

Peculiarities of the concept of human development in the countries
of Central Asia (socio-philosophical analysis) 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of publications works 49

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2020F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

SHIRINOV ANVAR QANOATOVICH

MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA INSON TARAQQIYOTI
KONSEPSIYASINI AMALGA OSHIRISHNING XUSUSIYATLARI
(IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL)

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Fal875 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Namozov Bobir Bahriyevich
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Nazarov Qiyom Normerzayevich
falsafa fanlari doktori, professor

Norqulov Do‘smurod Toshpo‘latovich
falsafa fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil “3” iyul soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (323 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil “19” iyun kuni tarqatildi.
(2023-yil “19” iyun dagi 7 raqamli reyestr bayonnomasi.)



Navro‘zova G. N.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

Sharipov A.Z.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor

Salomova H.Yu.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda jadal sur'atlarda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, dinamik o'zgarishlar inson taraqqiyoti konsepsiyasiga barqaror taraqqiyot, resurs-tejamkor texnologiyalarning tatbiq etilishini, adolatli ijtimoiy siyosat yurgizish strategiyalardan muvofiqini tanlashni va ijtimoiy davlatning asoslarini mustahkamlashni taqozo etmoqda. Inson taraqqiyoti strategiyalarining takomillashuvi ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy aloqalar va mintaqaviy munosabatlarni rivojlantirish, yoshlarning salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur sharoit yaratish, ilm-fan, ta'lim sohalarini yangi bosqichga ko'tarishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan inson kapitalini rivojlantirishning xalqchil davlat qurish, resurs tejamkor texnologiyalardan foydalanish, ma'naviy va ma'rifiy islohotlar izchilligini ta'minlash va aholining turli qatlamlarini qo'llab-quvvatlashga oid tamoyillarining ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fani va tadqiqot markazlarida Markaziy Osiyoda inson taraqqiyoti konsepsiyasining amalga oshirilishi, barqaror rivojlanish, oziq-ovqat xavfsizligi, munosib mehnat sharoitini ta'minlash, yashil o'sish, ekologik barqarorlik va aholining turli qatlamlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda. Ayniqsa, inson taraqqiyoti strategiyalarida "inson – jamiyat – davlat" tamoyilining ustuvorligini ta'minlashda, global, mintaqaviy, milliy rivojlanishni ta'minlovchi inson taraqqiyoti ko'rsatkichlarini, inson kapitalini oshirishda eng maqbul yechimlarni topish muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Shuningdek, inson kapitalini rivojlantirishning munosib mehnat sharoitini ta'minlash, inson kapitalining rivoji, ijtimoiy-iqtisodiy farovonlik, sifatli ta'lim, sog'liqni saqlash indikatorlarining inson taraqqiyoti konsepsiyasidagi o'rnini tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

Yangi O'zbekiston taraqqiyotida inson qadrini rivojlantirish, aholini ijtimoiy himoya qilish, sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, aholining hayot sharoitlarini ta'minlovchi ijtimoiy sohaning ustuvor yo'nalishlari hamda global innovatsion indeksda O'zbekistonning o'rnini yaxshilashga doir islohotlar olib borilmoqda. "BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida milliy maqsadlarni ro'yobga chiqarish, inson taraqqiyoti bo'yicha yuqori indeksga ega bo'lgan (intellektual salohiyati, savodxonligi, insonning o'rtacha umr ko'rish davomiyligi) davlatlar darajasiga erishishga, ijtimoiy sohaga innovatsiyalarni keng joriy etishni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar qabul qilinmoqda"¹. Shu nuqtai nazardan Yangi O'zbekiston strategiyasining barqaror o'sayotgan va inson kapitali yuqori bo'lgan demokratik davlatlar qatoridan joy olish maqsadida belgilangan ijtimoiy davlat barpo etish, adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, yaqin qo'shnichilik va strategik hamkorlik, ekologik barqarorlik va ijtimoiy-iqtisodiy farovonlikni ta'minlashga oid islohotlarning samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

¹Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: "Ўзбекистон", 2021. -Б. 69.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020 yil 2 iyundagi PF-6003-son “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to‘g‘risida”, 2022 yil 6 iyuldagi PF-165-son “2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022 yil 25 iyuldagi PF-175 son “O‘zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” farmonlari, 2019 yil 25 fevraldagi PQ-4210-son “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglar va indekslardagi o‘rnini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022 yil 18 maydagi PQ-246-son “Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlashda ilmiy salohiyat hamda amaliy faoliyat uyg‘unligini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”, Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 18 yanvardagi 23-son “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022 yil 21 fevraldagi 83-son “2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarorlari hamda sohaga oid boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Inson taraqqiyoti zamonaviy yondashuvlar xorijiy olimlar tomonidan keng o‘rganib kelinmoqda. Jumladan, inson taraqqiyoti, kapitali, farovonlik masalasini barqaror rivojlanishdagi tendensiyalarni tahlil etish kontekstida M.Haq, S.Anand va A.Sen, S.Fukuda-Parr inson taraqqiyoti indekslarini, F.Starr mintaqadagi inson taraqqiyotini retrospektiv asoslarini, E.Olvors madaniy muassasalar holatini, P.Frankopan inson taraqqiyotining kliodinamikasini, B. Valsh, L.De Florio va M.Bernxem inson taraqqiyotida oila muammolarini, V. Brayen, A.Masgrov va J. Pauerslar inson taraqqiyotida raqamli texnologiyalar va “yashil iqtisodiyot”ni hamda J. Tilak inson kapitalining rivojlanishida ta‘lim tizimini, S. Mexrotra inson kapitalidagi to‘siqlarni, S. Peyruz taraqqiyot dilemmalarini, X. Seilo inson farovonligida tenglik, ijtimoiy muhofaza tizimini, E. Stanton inson kapitali va tenglik rolini ko‘rib chiqqanlar².

² Haq M. The Human Development Paradigm. –New Delhi: Oxford University Press, 1995. –P. 132.; Anand S., Sen A. Sustainable Human Development: Concepts and priorities. –New York: UNDP, 1994. –P.234-239.; Fukuda-Parr S. Rescuing the human development concept from the HDI reflections on a new agenda.–New Delhi: Oxford University Press, 2003. –P.317-320.; Allworth E.A. Central Asia. 130 years of Russian dominance: A historical overview. –Durham: Duke University, 2002. –P. 621.; Frankopan P. The new Silk Roads. The present and future of the world. –London: Bloomsbury, 2018. –P. 336.; Walsh B.A. & DeFlorio L., M.M. Burnham. Introduction to human development and family studies. –New York: Routledge, Taylor & Francis, 2017. P.328-330.; Brian, V.C., Musgrove A.T., Powers J.R. Handbook of research in the digital age. –London: Hershey IGI Global, 2017. P. 244-249.; Tilak J. Education

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida inson taraqqiyoti, inson kapitali ko'rsatkichlari, barqaror rivojlanish borasida A.Sagradov inson farovonligi va uning istiqbollari, A. Razumov kam ta'minlangan aholi qatlamlarining muammolarini, iqtisodiy inqirozlar davrida inson taraqqiyoti ko'rsatkichlarini, T.Demchenko inson taraqqiyotining xalqaro jihatlarini tahlil qilgan, G. Roshin demografik siyosat, munosib mehnat sharoitlarini, A. Klimenko ijtimoiy soha va inson taraqqiyoti omillarini, sog'liqni saqlash muammosining muayyan jihatlarini tahlil etganlar. S. Olimova migratsiya, yoshlar masalalari va mintaqaviy tafovutlarni, S.Pirmuxammedov ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, inson omili ko'rsatkichlarini, S.Matikeyeva inson taraqqiyotini ta'minlashda nodavlat notijorat tashkilotlarining rolini, N.Jdanova inson taraqqiyoti gender muammolarini, D.Zakirova mamlakatning raqobatbardoshligida inson salohiyatini tadqiq etishgan³.

Yurtimiz olimlaridan J. Pulatov, M. Inoyatov, M. Norqobilov, E.Abdullayev, M. Isroilov, F. Qosimov, A. Salimov kabi tadqiqotchi olimlar tomonidan inson taraqqiyoti va barqaror rivojlanish masalalari tadqiq etilgan⁴. Inson taraqqiyoti, inson kapitali, inson farovonligi, salomatligi, ijtimoiy-madaniy rivojlanishni ochib berishga doir qarashlar N. Shermuxamedova, N. Jo'raev, Q.Nazarov, D. Norqulov, S.Choriyev, A. Sharipov, Sh. Paxrutdinov fikr-mulohazalari va ilmiy ishlarida kuzatiladi⁵.

and poverty // Journal of Human development. –London: 2002. Volume 3. № 3. July. –P.191-205.; Mehrotra S. Seizing the Demographic Dividend. –Cambridge.: Cambridge University Press, 2015. –P. 480.; Peyrouse S. Turkmenistan: Strategies of Power, Dilemmas of Development. –NewYork: Routledge Taylor& Francis, 2011. —P. 264.; Seilo H.J. Equality and human development. A dissertation submitted in partial satisfaction of the requirement for the degree of Doctor of Philosophy in Sociology. University of California. –Berkeley. 2017. P. 280; Stanton E. A. Inequality and human development indicators. Dissertation submitted to University of Massachusetts Amherst in partial fulfillment of the requirements for the degree of Doctor of Philosophy in Economics. –Amherst. 2007. P. 225.

³ Саградов А.А. Индекс человеческого развития: проблемы и перспективы. –Москва: МАКС Пресс, 2016. – С. 96.; Разумов А.А. Работающие бедные в России. –Москва: ВЦУЖ, 2002. –С.258.; Разумова Т. О., Телешова И. Г. Образование и человеческое развитие. –Москва: ТЕИС, 2000. – С. 141.; Демченко Т. А. Человеческое развитие России в условиях постмодернизации и глобализации: Социо-демографическое измерение. Дис. докт. экон. наук. –Москва: МГУ, 2004. – С.279.; С. Рошин. Человеческое развитие и занятость. –Москва: ПРООН. 2008. –320 с.; Клименко А.В. Государственное управление, общественный сектор и развитие человека.–Москва: ПРООН, 2004. –С. 224.; Олимова С. Миграционные процессы в современном Таджикистане. –Душанбе: Центр “Шарк”, 2016. –С. 228.; Пирмухамедов С. Курс на реформирование туркменского общества. // Халқаро муносабатлар. –Тошкент: 2009.-№1.–С. 73-81.; Матикеева С.К. Роль неправительственных организаций в условиях гражданского общества в Кыргызстане. Автореф. дисс. канд. полит. наук. Кыргызский Национальный Университет им. Ж. Баласагынова. –Бишкек, 2015. – 25-с.; Д.И. Закирова. Человеческий потенциал как фактор повышения конкурентоспособности Республики Казахстан. Дисс. на соискание ученой степени доктора философии (PhD) в области экономики. Университет Туран. –Алматы, 2012. –С.160.

⁴ Пулатов Ж. Н. Демократик жамиятда «Инсон тараққиёти» концепциясининг ижтимоий-фалсафий таҳлили: фалсафа фанлари бўйича фал. докт. (PhD) дисс. автореф. –Тошкент., 2021., –129 б.; Иноятлов М. Б. Ўзбекистонда жамиятни демократлаштириш жараёنларини жадаллаштиришда инсон омилли: сиёсий фанлар бўйича фал. докт (PhD) дисс. автореф. – Тошкент., 2019. –155 б.; Норқобилов М.Ж. Ижтимоий капитал – миллий ҳамжихатликни таъминлаш манбаи: фалсафа фанлари бўйича фал. докт. (PhD) дисс. автореф. – Бухоро., 2022. –52 б.; Абдуллаев Э. Б. Инсон капитали намоён бўлишининг ижтимоий-фалсафий жиҳатлари: фалсафа фанлари бўйича фал. докт. (PhD) дисс. автореф. –Andijon., 2022. –135 б.; Қосимов Ф.С. Янгиланаётган Ўзбекистонда инсон капиталини ривожлантиришнинг ижтимоий-фалсафий асослари: фалсафа фанлари бўйича фал. докт. (PhD) дисс. авторефер. –Самарқанд., 2022. –160 б.; Салимов А.А. Таълим соҳасида инсон тараққиёти концепциясининг асосий йўналишлари. Иқтисодиёт фанлари бўйича фал. докт. (PhD) диссертацияси автореферати. –Самарқанд., 2019. –58 б.

⁵ Шермухамедова Н., Тюкмаева А. М. Барқарор ривожланиш ва хавфсиз таълим орасидаги ўзаро алоқалар. // Falsafa va hayot. 2022 №1(16). Тошкент. –Б. 9-30.; Жўраев Н. Тамаддунга даъват тараққиёт стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – 264 б.; Назаров Қ. Фалсафа асослари. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари

Markaziy Osiyoda, jumladan inson taraqqiyotining amalga oshirish xususiyatlarini, mamlakatlar strategiyalarining inson kapitalidagi ahamiyatini tadqiq etish jarayonida nomlari qayd etilgan va boshqa o'zbek, jahon olimlarning ilmiy ishlaridan foydalanildi. Dissertatsiyada ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlardan farqli ravishda, ijtimoiy-iqtisodiy yondashuvlarni shakllantiruvchi inson taraqqiyotining omillari va uning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati, klodinamik roli hamda inson kapitalini rivojlantirishdagi ahamiyati asosida tadqiq etishga e'tibor qaratilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq II band "Yangi O'zbekistonda ma'rifatparvar davlat barpo etishning ijtimoiy-falsafiy va ma'naviy-axloqiy asoslarini takomillashtirish muammolari" (2022-2026 yy.) tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Markaziy Osiyo davlatlarida inson taraqqiyoti konsepsiyasini amalga oshirish asosida inson kapitalining rivojlanish xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

inson taraqqiyoti konsepsiyasining o'ziga xos xususiyatlarining falsafiy-metodologik tahlilini amalga oshirish va inson kapitali, insonning tanlash imkoniyatini kengaytirish bilan dialektik aloqadorligini aniqlash;

mintaqa mamlakatlarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va uning inson taraqqiyoti bilan bog'liqligini ochib berish;

Markaziy Osiyo davlatlarining rivojlanishida inson taraqqiyoti indekslariga nisbatan munosabatlarning dinamikasini asoslab berish;

ijtimoiy muhofaza va samarali boshqaruvning inson taraqqiyotidagi o'rnini, barqaror rivojlanishda ijtimoiy himoya sohasidagi islohotlarning rolini tadqiq etish;

Yangi O'zbekistonda BMTning Barqaror Rivojlanish Maqsadlarini jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyoti kontekstida tahlil etish va inson taraqqiyoti konsepsiyasini amalga oshirishning istiqbollari aniqlash;

mintaqa davlatlarining inson manfaatlarini ta'minlash va taraqqiyot strategiyalarining ustuvor vazifalarini amalga oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida Markaziy Osiyo mamlakatlarining rivojlanish strategiyalari hamda inson kapitalini rivojlantirishga oid olib borayotgan islohotlar jarayoni tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti Markaziy Osiyo mamlakatlarida inson taraqqiyoti konsepsiyasining amalga oshirilishi va inson kapitalining ko'rsatkichlarini yuqori

миллий жамияти, 2018. – 380 б.; Норқулов Д. Фуқаролик жамияти ва ижтимоий онгда трансформация жараёнлари. – Тошкент: Наврўз, 2015. – 178 б.; Чориев А., Чориев С. Миллий истиқлол мафқураси ва барқамол инсон шахсини шакллантириш. Тошкент: Чўлпон, 2005. – Б. 224.; Шарипов А.З. Янги Ўзбекистонда маънавий-мафқуравий ислохотлар трансформациясининг ижтимоий-фалсафий таҳлили: Фалс.ф.д. дисс. –Бухоро: БухДУ, 2021. – Б. 257; Ш. Пахрутдинов. Барқарор тараққиёт ва раҳбар масъулияти. Академия, 2011. – 304 б.

darajaga ko'tarish yo'nalishlarining o'ziga xos xususiyatlarini asoslab berishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, kompleks yondashuv, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, retrospektiv tahlil, dialektik, sinergetik kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Markaziy Osiyoda inson kapitalini rivojlantirishning adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, yashil rivojlanish, xalqchil davlat qurish, resurs tejamkor texnologiyalardan foydalanish, ma'naviy va ma'rifiy islohotlar izchilligi, yaqin qo'shnichilik va strategik hamkorlikning yo'lga qo'yilishi kabi muhim omillarga tayanganligi dalillangan;

barqaror rivojlanishda ijtimoiy infratuzilmalar takomillashuvi, oziq-ovqat xavfsizligi, ekologik barqarorlik va aholining turli tabaqalarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan prinsiplarida "avval – inson, keyin – jamiyat va davlat" konsepsiyasining ustuvorligi isbotlangan;

inson taraqqiyoti konsepsiyasidagi munosib mehnat sharoitini ta'minlash, inson kapitalining rivoji, ijtimoiy-iqtisodiy farovonlik, sifatli ta'lim, sog'liqni saqlash indikatorlarining kliodinamik transformatsiyasi Yangi O'zbekiston taraqqiyoti maqsadlarini amalga oshirishga xizmat qilishi aniqlangan;

Qadimgi Sharq va G'arb mutafakkirlarining inson baxt-saodati, farovonligi, salomatligi, ijtimoiy-madaniy huquqlarining oliy qadriyat sifatida e'tirof etilishi borasidagi ijtimoiy-falsafiy qarashlarida o'zaro mushtaraklik mavjudligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

inson taraqqiyoti bo'yicha Markaziy Osiyodagi vaziyatning dinamik xarakterga ega ekanligi, inson taraqqiyotiga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlar, tahlil etilgan faktlar, xulosa, taklif va tavsiyalarining ijobiy ta'sirga egaligi asoslab berilgan;

inson taraqqiyoti indekslarini yuksaltirish, global sherikchilikni, ekologik barqarorlikni ta'minlash, xavfli kasalliklarni bartaraf etish, gender sohasida jamiyat hayotining turli jabhalarida tenglikni rag'batlantirish, ta'lim-tarbiya muassasalarida ilmiy, tarbiyaviy-mafkuraviy ishlarni amalga oshirishda nazariy-metodologik asos ekanligi aniqlangan;

"Inson taraqqiyoti", "inson kapitali", "barqaror taraqqiyot" bo'yicha tadqiqotlar olib borish zarurati ochib berilgan hamda ijtimoiy va siyosiy-iqtisodiy erkinliklarni ta'minlashda insonlarga teng imkoniyatlarni yaratishga oid taklif-tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalardan olinganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o'tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo'yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo'lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati inson taraqqiyotiga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlarni

takomillashtirishda, inson taraqqiyoti indekslarini joriy etish, ijtimoiy-iqtisodiy erkinliklarni ta'minlash, yosh avlodni ijtimoiy-falsafiy bilimlar bilan qurollantirish, o'quv-metodik, metodologik, ilmiy, ilmiy-ommabop adabiyotlarni tayyorlash va nashr etish, ilm-fanning ta'lim va boshqa ijtimoiy sohalar bilan konsolidasiyalashuvini jadallashtirish va takomillashtirishga doir ilmiy, ijtimoiy, ta'lim, jamoat tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish ishlarining samaradorligini oshirishda nazariy-metodologik asos sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, ishdagi nazariy tahlil va umumlashmalardan fuqarolik jamiyati institutlari va davlat tuzilmalarining mamlakat investitsiyaviy jozibadorligi va xalqaro maydondagi imidjini mustahkamlash, xalqaro reyting va indekslar bilan ishlashning yangi mexanizmlarini joriy qilish, jamiyatni demokratlashtirish, xalqaro reytinglardagi o'rniga oid axborotlarni tayyorlashda, 2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarga erishilishini ta'minlash chora-tadbirlarni amalga oshirish faoliyatida hamda "Barqaror rivojlanish", "Ijtimoiy ishning xorijiy mamlakatlar tajribasi", "Global inqirozlar davrida ijtimoiy ish fanlaridan o'quv-metodik bazani takomillashtirishda, shuningdek inson resurslarini rivojlantiruvchi, tahliliy, ma'naviyat va ma'rifat markazlarining o'quv-tarbiya faoliyatida, OAVda inson resurslari va uning muammolariga oid ko'rsatuvlarni tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Markaziy Osiyo mamlakatlarida inson taraqqiyoti konsepsiyasini amalga oshirish xususiyatlarining ijtimoiy-falsafiy tahlili asosida:

Markaziy Osiyoda inson kapitalini rivojlantirishning adolatli ijtimoiy siyosat, yashil rivojlanish, xalqchil davlat qurish, resurs tejankor texnologiyalardan foydalanish, ma'naviy va ma'rifiy islohotlar izchilligi, yaqin qo'shnichilik va strategik hamkorlikning yo'lga qo'yilishiga tayanganligigiga doir ilmiy xulosa va natijalaridan Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining "Asrlarning asraganlari", "Najot bilimda", "Sakkizinchi mo'jiza" teledasturlarida 2022 yilda efirga uzatilgan "Muloqot va munozara", "Qadriyatlar qadim beshigi" teleko'rsatuvlar va radioeshittirishlari senariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining 2023 yil 2 fevraldagi 28-son ma'lumotnomasi). Natijada, teletomoshabinlarning xalqimiz turmush sifati va farovonligini oshirish, yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy saviyasini yuksaltirish orqali mamlakatimizni rivojlangan davlatlar qatoridan munosib o'rin olishi haqidagi ilmiy tasavvur va tushunchalarining boyishiga hamda ko'rsatuvlarning ilmiyligi va ommabopligini oshirishga xizmat qilgan;

barqaror rivojlanishda ijtimoiy infratuzilmalar, oziq-ovqat xavfsizligi, ekologik barqarorlik va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan prinsiplarda "avval inson, keyin davlat" konsepsiyasining ustuvorligining isbotlanganligiga oid ilmiy yangiliklardan O'zbekiston Yoshlar ittifoqi professional ta'lim muassasalaridagi boshlang'ich tashkilotlarning namunaviy Ish rejalari III bob 12 bandidagi "Yangi O'zbekistonda el aziz, inson aziz!" mavzuidagi targ'ibot ishlarini tashkil etishda foydalanilgan (O'zbekiston Yoshlar

ittifoqi Markaziy Kengashining 2023 yil 11 yanvardagi 04-13/19-son ma'lumotnomasi). Natijada, yoshlar o'rtasida Yangi O'zbekiston taraqqiyotida inson kapitalini takomillashtirish, sifatli ta'limni rivojlantirish va yoshlar huquqlarini himoya qilishga mas'uliyatli ekanliklari haqidagi tasavvurlarni shakllantirishga xizmat qilgan;

inson taraqqiyoti konsepsiyasidagi munosib mehnat sharoitini ta'minlash, inson kapitalining rivoji, ijtimoiy-iqtisodiy farovonlik, sifatli ta'lim, sog'liqni saqlashning indikatorlarining islohotlarning klodinamik transformatsiyasi Yangi O'zbekiston taraqqiyoti maqsadlarini amalga oshirishga xizmat qilishi kabi ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalardan Resublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2022 yilda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturining 49-bandi O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining o'ttiz bir yilligi sanasi munosabati bilan "Inson manfaatlari – hamma narsadan ustun" va "Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" tamoyillari asosida targ'bot-tashviqot ishlarida foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2023 yil 10 yanvardagi 6-son ma'lumotnomasi). Natijada, inson taraqqiyotini konsepsiyasini amalga oshirish, barqaror rivojlanishga erishish, mintaqada hamkorlik, inson kapitalining rivoji, sifatli ta'lim, sog'liqni saqlash islohotlarining dinamik darajalari ma'rifiy darajada miqdordan sifat o'zgarishlariga ko'chishiga xizmat qilgan;

Qadimgi Sharq va G'arb mutafakkirlarining inson baxt-saodati, farovonligi, salomatligi, ijtimoiy-madaniy huquqlarining oliy qadriyat sifatida e'tirof etilishi borasidagi ijtimoiy-falsafiy qarashlarida o'zaro mushtaraklik mavjudligiga doir xulosa va takliflardan O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan YOA-1-13+(1-18) son "Fandagi fanlararo yondashuv shakllanishining konseptual asoslari hamda globallashuv sharoitida milliy o'zlikni saqlash muammosini hal etishda ijtimoiy va ma'naviy-makuraviy targ'ibot texnologiyalarining ahamiyati" (2017-2020 yy) fundamental ilmiy-tadqiqot loyihasini bajarishda foydalanilgan (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universitetining 2023 yil 13 fevraldagi 04/11-739-son ma'lumotnomasi). Natijada, buyuk mutafakkirlar ta'limotlarida qayd etilgan insonning jamiyatdagi mavqei, uning qadri, bunyodkor salohiyati, baxt-saodati hozirgi kunda Yangi O'zbekiston taraqqiyotida insonning rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirish, uni har tomonlama taraqqiy ettirish tendensiyalari va istiqbollarni rivojlantirish ahamiyatiga oid mulohazalarni mazmunan boyitishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola (4 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 154 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “Kirish” qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, tadqiqot bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti, usullari yoritilgan. Shuningdek, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi va ilmiy-amaliy ahamiyati tavsiflangan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Inson taraqqiyoti konsepsiyasini o‘rganishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlanib, unda “inson taraqqiyoti”, inson kapitali tushunchalarining tarkibi, omillari va mezonlari aniqlangan, mintaqa, jumladan O‘zbekistonda inson taraqqiyotining transformasiyasi va mavjud vaziyat tadqiq etilgan.

Inson taraqqiyoti tushunchasining shakllanishi miloddan avvalgi davrlarga borib taqaladi. Yunon olimlari Aflotun, Suqrot va Arastu davridan boshlab inson taraqqiyoti omiliga e’tibor berila boshlangan. Arastu davrida polislarda yashovchi kishilarning hayot tarzi o‘rganilgan. U eng oliy ne’mat sifatida baxtni e’tirof etib, davlatning kishilarning muhofazasi, salomatligi, adolat, madaniy huquqlarini ta’minlovchi tashkilot deb ataydi⁶. Sharq Uyg‘onish davrida Markaziy Osiyoning yetuk mutafakkirlari Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino asarlarining asosiy mavzusi inson muammolari bo‘lgan. Forobiy o‘zining “Fozil odamlar shahri” asarida inson muammosini tadqiq qilgan⁷. Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro davrida ham inson taraqqiyoti masalalari o‘rganilgan. Aholini himoyalovchi, uning farovon hayotini ta’minlovchi, kuchli, adolatli hukmdor doimo qadrlangan. A. Navoiyning “Xamsasi”ga kiruvchi “Saddi Iskandariy” asarida odil podshoh va fozil fuqarolarning munosabatlari aks etgan.

Muruvvat barcha bermakdur, yemak yo‘q,
Futuvvat barcha qilmakdur, demak yo‘q⁸.

Ma’rifatparvarlar davriga kelib inson, uning xavfsizligi muammolari falsafiy jihatdan tadqiq etilib, fransuz olimi J.J. Russo, xalqning baxt-saodati va farovonligi masalalarini o‘rgangan⁹. Nemis mutafakkiri I. Kantning qayd etishicha “insonning taraqqiy etishini belgilab beruvchi muassasalar qatorida ta’lim, fan va madaniyat sohalarining ahamiyati borligini va unda doimo bunyodkor ibtido ustundir”¹⁰. Nemis faylasufi O. Shpengler inson va zamonaviy texnologiyalarning

⁶ Аристотель. Этика, политика, риторика, афоризмы. –Москва: Эксмо, 2023. –С. 123.

⁷ Форобий. Фозил одамлар шахри. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2018. –Б. 68.

⁸ Алишер Навоий. Танланган асарлар. 6- том. Фавойид ул кибар. – Тошкент: Фан, 2003. –Б.234

⁹ Руссо Ж.Ж. Халқ бахти ҳақида // Жаҳон адабиёти. (Рус тилидан А. Абдукодиоров таржимаси). – Тошкент: 2012. – №8(184). – Б. 156-166.

¹⁰ Кант И. К вечному миру. – Москва: Рипол-Классик, 2020. –Б. 221.

munosabatlari inson manfaatlarini ta'minlashga qaratilganligini falsafiy tadqiq etgan¹¹.

Q. Nazarov insonning tabiat va jamiyatdagi o'rnini, insonning fazilatlarini, inson qadri, shaxsiy xususiyatlari, uning ehtiyojlari va qiziqishlarining ijtimoiy jarayonlardagi o'rnini, atrof-muhit masalalarining inson taraqqiyotidagi ahamiyatini tadqiq etgan¹². J.Tulenov "har bir inson jamiyatdagi boshqa odamlar bilan birga umumiy manfaatlarga ega va ayni zamonda uning o'zi shaxsiy, faqat o'zigagina xos bo'lgan talab-istakkari, qiziqishlari ham bo'ladi. Insonning qiziqishlari, shaxsiy manfaatlarini e'tiborga olmasdan, ularni amalga oshirish chora-tadbirlarini ko'rmasdan turib adamlarning kuch-qudrati va imkoniyatlaridan unumli oqilona foydalanib bo'lmaydi" deb ta'kidlaydi¹³.

Qayd etilgan tadqiqotchilarning fikricha bu konsepsiya inson taraqqiyotining ikki jihatini:

1. Sog'liqni saqlash va ta'lim sohasidagi imkoniyatlarni batafsil o'rganadi;

2. Bu imkoniyatlarni ijtimoiy-siyosiy va madaniy sohalarida, ishda, dam olishda qo'llashni nazarda tutadi.

Dissertatsiyada inson taraqqiyoti konsepsiyasi ijtimoiy-siyosiy nazariya sifatida Sharq va G'arb olimlari talqinida turlicha baholangani ta'kidlanadi. Bulardan biri turli savollarni keltirib chiqargan T. Shults tomonidan ishlab chiqilgan "inson kapitali" tushunchasidir. Bunda "inson kapitali" omilining ajratilishi ta'lim, fan va sog'liqni saqlashning iqtisodiy ahamiyati ochib berilgan. Inson kapitali – bu ishlab chiqarishning vositasi va uzoq muddatga mo'ljallangan predmet kabi ikki vazifani bajaruvchi insondagi bilim va malakalarning majmuidir. Inson kapitali nazariyasining L. Turou va boshqalar tomonidan tanqid qilinishi inson kapitali ta'limoti tarafdorlarini mukammal strategiyalarni ishlab chiqishga undab, natijada inson resurslariga ko'maklashish yo'nalishi vujudga keldi. L. Turou va M.Boniman inson kapitali asosida ishchining ishlab chiqarish qobiliyatlari, davlat, tashkilot, insonning mazkur qobiliyatlarini shakllantirish va takomillashtirishga bo'lgan xarajatlarini tushunishadi. Inson kapitali obyektiga umumiy va maxsus ta'lim tavsifidagi bilim, ko'nikma va jamg'armalar kiritilishi ta'kidlanadi¹⁴.

G'arb olimlari bu muammoni o'rganishga harakat qilishayotgan bo'lsalar-da, bunda individual tafakkur tarzi hukmron. Sharqda insonning yashab turgan muhitidagi ijtimoiy mavqei, mahallaning inson taraqqiyotidagi o'rniga ahamiyat berilmoqda¹⁵. Boshqa iqtisodiy nazariyalardan farq qilib, inson taraqqiyoti konsepsiyasida insonlar taraqqiyotning maqsadidir. Farovonlik konsepsiyasi va asosiy ehtiyojlar konsepsiyasida insonlar moddiy ne'matlarni qabul qiluvchilar hisoblanadi.

Hind olimi S. Mexrotraning fikricha, inson taraqqiyoti bo'yicha hisobotlar inson taraqqiyotining bir necha indekslarini o'z ichiga oladi. Inson taraqqiyoti

¹¹ Spengler O. Der Mensch und die Technik: Beitrag zu einer Philosophie des Lebens. –Berlin: Edition Holzinger. Taschenbuch Berliner Ausgabe, 2016, 4 Auflage. –P. 92.

¹² Назаров Қ. Қадриятлар фалсафаси (Аксиология). – Тошкент: Файласуфлар миллий жамияти нашриёти, 2004. –Б.107-108.

¹³ Диалектика назарияси. Тошкент: "Ўзбекистон", 2001. –Б. 162.

¹⁴ Экономическая энциклопедия // Под ред. Абакина Л. И.-М.: 2016. С. 275.

¹⁵ Haq M. The Human Development Paradigm. – New Delhi / Oxford University Press, 1995. 27-p.

indeksi uzoq umr ko‘rish, bilim va daromadlarni (umr ko‘rish uzoqligi, katta yoshdagi kishilarning savodxonligi, maktabga qatnagan yillari uzoqligi va xarid qilish qobiliyatidan kelib chiqib daromadlarini hisobga olgan holda hisoblanadi) nazarda tutadi¹⁶.

Barqaror inson taraqqiyoti omillari 1990-1996 yillarda shakllanib, ushbu davr inson taraqqiyotining dastlabki ko‘rsatkichlarining ishlab chiqilishi va global ma‘ruzalarning tayyorlanishi bilan izohlanadi. Ijtimoiy himoya va samarali boshqaruv (1997-2022 yy.) masalasi mintaqa mamlakatlarida inson manfaatlarini himoya qilishning boshlanishi, O‘zbekistonda ijtimoiy muhofaza qilish tamoyillarining strategik maqsad sifatida belgilanishi, Tojikistonda fuqarolar urushining nihoyasiga yetishi va Qirg‘izistonda ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarning yomonlashishi bilan izohlanadi.

Inson taraqqiyoti bu kishilarga sog‘lom va bunyodkor hayotni ta‘minlovchi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik muhitni yaratish va ularga hayotning turli sohalarida keng tanlov imkoniyatini yaratishdir. Bu tanlov zamon o‘tishi bilan o‘zgarishi mumkin, lekin taraqqiyotning barcha bosqichlarida uzoq va sog‘lom hayotni yashash, bilim olishga bo‘lgan ehtiyoj, munosib hayotni yashash uchun resurslarga intilish saqlanib qoladi. Inson taraqqiyoti iqtisodiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik va madaniy jihatlarida namoyon bo‘ladi.

2022 yilda mazkur vaziyat quyidagicha tus olgan¹⁷.

Jadval 1.1.

Mamlakatning o‘rni. ITI qiymati	O‘rtacha umr uzoqligi (yil)	Savodxonlik darajasi (15 yoshdan oshgan kishilarda % hisobida)	Aholi jon boshiga YaIM miqdori (XQP AQSh doll.)
122. Tojikiston (0.685)	71.6	99.5	4548
91. Turkmaniston (0.745)	69.3	99.5	13021
101. O‘zbekiston (0.727)	73,7	99.8	7917
56. Qozog‘iston (0.811)	69.4	99.7	23943
118. Qirg‘iziston (0.692)	70.0	99.3	4566

O‘zbekistonda “Obod qishloq” dasturi bo‘yicha bunyodkorlik ishlari olib borilmoqda. “Obod qishloq” dasturi doirasida mahallada amalga oshiriladigan ishlarning ro‘yxatini olib taqqoslaymiz. Jizzax viloyatining Manas aholi punktida boshlangan qurilish ishlari mamlakatimizning barcha hududlariga tarqaldi. 2018 yil 27 iyun kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ““Obod mahalla” dasturi

¹⁶ Mehrotra S. Seizing the Demographic Dividend. Policies to Achieve Inclusive Growth in India. – Cambridge: Cambridge University Press, 2015. – P- 422.

¹⁷ Conceição P. Human development report 2021/2022. Uncertain times: Unsettled lives: Shaping our future in a Transforming world. –New York: AGS, RR Donnelly, 2022. –314-316 pp.

to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi¹⁸. Farmonga ko'ra, "Obod mahalla" dasturi amalga oshirilmoqda. Dastur bilan shaharlarda 2018 yilda 2 tadan va 2019-2022 yillarda kamida 3 tadan mahallalarda qurilish, ta'mirlash va obodonlashtirish ishlarini bajarildi. 2019 yilda 416 qishloq "Obod qishloq" dasturi orqali obod bo'lishi ko'zda tutildi.

Inson taraqqiyoti indeksi-majmuaviy ko'rsatkichi ishlab chiqilib, u quyidagilarni qamrab oladi: tug'ilganda kutilayotgan hayotning davomiyligini aks etuvchi hayotning uzoqligi indeksi; aholining ta'lim muassasalari bilan qamrab olinganligini tavsiflovchi ta'lim indeksi va savodlilik darajasi; Yalpi Milliy Mahsulot ko'rsatkichiga asoslangan holdagi YaMM indeksi. 2020 yilgi tinchlik bo'yicha Nobel mukofotining Jahon Oziq-ovqat dasturiga (WFP) berilishi misolida BRMLarning Covid-19 pandemiyasi sharoitida har qachongidan ham dolzarblashganligini ko'ramiz. Mazkur dastur 2019 yilda 88 mamlakatda ocharchilikdan aziyat chekkan 100 million nafarga yaqin kishiga ko'maklashgan. 2015 yilda ocharchilikni bartaraf etish BRMLardan biri sifatida belgilangan. 2019 yilda urush va mojarolar natijasida 135 million kishi ocharchilikdan aziyat chekdi¹⁹.

XX asrning yutuqlari bo'lgan biotexnologiyalar, biometrika, simsiz texnologiyalar, DNK tahlili, muqobil energiya bilan ishlovchi dvigatellar, kompyuter, lazer, genlar ustida olib borilgan tadqiqotlar, nanotexnologiyalar, prosessor va kompyuter chiplari, raqamli qurilmalar, koinot tadqiqotlari, optik tola, skanerli texnologiyalarning kashf etilishi negizida insonning taraqqiyotini ta'minlash maqsadi turibdi. Bu texnologiyalarni rivojlantirish insonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini belgilab, jahon hamjamiyatini xavotirga solayotgan qashshoqlik, turli kasalliklarga qarshi kurashni osonlashtiradi. AQSh, Germaniya va Fransiya kabi mamlakatlarda ham inson omili dolzarb hisoblanadi. Nyu-Yorkda Garlem, Parijda Klishi syu Bua va Berlinda Shyonefeld kabi muammoli kvartallar borki, ulardagi inson taraqqiyoti darajalari Afrikadagi ko'rsatkichlarni takrorlaydi. Klishi syu Buada Afrikadan kelgan muhojirlar bilan birga ularning istiqomat qilgan mamlakatlaridagi ijtimoiy keskinliklar ham kelgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Markaziy Osiyo davlatlarining inson taraqqiyoti indekslariga nisbatan munosabatlari dinamikasi**" deb nomlanib, unda Markaziy Osiyoning rivojlanishi inson taraqqiyoti kontekstida, ijtimoiy muhofaza va samarali boshqaruvning inson taraqqiyotidagi o'rni, inson taraqqiyoti bo'yicha hisobotlarning mintaqaviy va umummilliy darajadagi tahlili amalga oshirilgan.

Dissertant mintqa davlatlarining taraqqiyot modellarida inson salohiyati omiliga katta e'tibor berilganligi, u jahon taraqqiyotida doimo muhim rol o'ynab kelganligini qayd etadi. Buni jahon hamjamiyati tomonidan qabul qilingan "Sog'liq Deklaratsiyasi" ning 1978 yil 12 sentyabrda Olmaotada qabul qilinganligi misolida ko'rsatgan²⁰.

¹⁸O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Obod mahalla" dasturi to'g'risida PF-5467-son farmoni // lex.uz/docs/3797772

¹⁹The Nobel Peace prize for 2020 // <https://www.nobelprize.org/prizes/peace/2020/press-release/>

²⁰ Алма-Атинская декларация // <https://apps.who.int/iris/handle/10665/347882>

O‘zbekiston Jahon Banki bilan 2022 yilda 2022-2026 yillar uchun mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga hamohang 2026 yilgacha Mamlakat dasturini shakllantirdi. Jahon banki hozirgi kunda mamlakatda 5.26 mlrd AQSh dollariga teng loyihalarni tatbiq etgan²¹.

Prezident Sh. Mirziyoyevning 2020 yil 25 noyabrdagi “Jahon bankining Xalqaro taraqqiyot uyushmasi va Osiyo infratuzilmaviy investisiyalari banki ishtirokida “Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan 2020 yil so‘nggi choragidan boshlab respublikaning 5 ta viloyatida turli loyihalar amalga oshirilmoqda.

Dissertatsiyada O‘zbekistonda Kioto Protokolining Musaffo rivojlanish mexanizmi doirasida “O‘ztransgaz” aksiyadorlik kompaniyasining kompressor stansiyalarida tabiiy gaz sizib chiqishini kamaytirish loyihasi natijasida jahon bozorida chiqindilar chiqarishning sertifikatlangan qisqartirishlarini sotishdan olingan ajratmalar hisobiga ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish va atrof-muhitni muhofaza qilishning moliyalashtirilayotganligi qayd etiladi. BMT TD Karbon jamg‘armasining Yashil investitsiyalar sxemasini amalga oshirish bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi qo‘mita tashkil etildi²². Buni nazorat qilish Orolbuyi genofondini muhofaza qilish xayriya jamoatchilik jamg‘armasiga topshirildi. 2018 yil 27 noyabrda BMT shafe‘ligida Orolbo‘yi mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo‘yicha ko‘ptomonlama sheriklik asosida trast fondi tuzildi. 2018 yilda Sh.M. Mirziyoyev Orol fojiasi oqibatlarini bartaraf etishda Orolbo‘yi hududini Ekologik innovasiya va texnologiyalar zonasi, deb e‘lon qilish masalasini ko‘rib chiqish haqida to‘xtalgan.

Dissertant Qozog‘istonda neft va gaz ishlab chiqarishning keyingi 20 yilda bir necha baravarga o‘sishi aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli yaxshilanishiga olib kelib, mamlakat inson taraqqiyotida yetakchi o‘rinlarni egallay boshlaganligi, “ArselorMittal” va “Shevron” korporatsiyalarining faoliyati mamlakatning atrof-muhitiga salbiy ta‘sir ko‘rsatganligini qayd etadi. “Qozog‘iston-2050” strategiyasida 2050 yilga borib rivojlangan iqtisod va umumiy mehnat imkoniyatlari asosida farovonlik jamiyatini yaratish lozimligi qayd etiladi

Qirg‘izistonda tez-tez bo‘lib turgan ijtimoiy-siyosiy mojarolar natijasida mamlakat so‘nggi 20 yilda muammolar girdobiga tushdi. Mamlakatda yashaydigan 7 mln kishidan 1,6 millioni qashshoqlikda yashaydi²³. Sovet rejimi davrida ijtimoiy farqlarning saqlanganligi bilan tavsiflangan Qirg‘izistonda iqtisodiy-ijtimoiy muammolarning keskinlashuvi natijasida 2005 yilda janubiy mintaqaning markazi – O‘sh shahriga mamlakatning Favqulodda vaziyatlar vazirligi ko‘chirildi.

O‘zbekiston mamlakat aholisining 2023 yil 1 yanvarda 36,024 mln kishini tashkil etganligi mamlakat rahbariyatidan samarali boshqaruv tamoyillarini joriy

²¹ Uzbekistan and World Bank group to boost cooperation with new country partnership framework // www.worldbank.org/en/news/press-release/2022/05/24/uzbekistan-and-world-bank-group-to-boost-cooperation

²² Киото Протоколининг Мусаффо ривожланиш механизми доирасида “Ўзтрансгаз” акциядорлик компаниясининг компрессор станцияларида табиий газ сизиб чиқишини камайтириш лойиҳасини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори. 298 // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. №26(370) 2009 йил 29 июнь. 14-16 б.

²³ Национальный статистический комитет Кыргызской Республики // <http://www.stat.kg/media/publicationarchive/.pdf> 13.06.2018

etishni talab qilmoqda ²⁴. 2022 yil 1 dekabrda Qozog‘iston aholisi 19,741 mln kishini tashkil qildi ²⁵. 93 foizi tog‘li hudud bo‘lgan Tojikistonda 10 mln kishi yashamoqda ²⁶. Qirg‘izistonda 2023 yil 1 fevralda 7 mln kishi yashamoqda ²⁷.

Turkmanistonda ham so‘nggi yillarda islohotlar sur‘ati tezlashmoqda. Orol falokatining oldini olish maqsadida oxirgi 20 yil davomida Yashil belbog‘ milliy dasturi asosida 90 mln. daraxt o‘tqazildi ²⁸. 2016 yilda Global Barqaror transport konferensiyasi Turkmanistonda bo‘lib o‘tdi.

Inson taraqqiyotining muhim shartlaridan biri munosib mehnat sharoitlarini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Xalqaro Mehnat Tashkilotiga 1992 yil mart oyida a‘zo bo‘lib, uning 18 ta konvensiyasini ratifikatsiya qilgan. Mazkur konvensiyalarni implementatsiya qilish bo‘yicha vazirliklar, ishchilar va ish beruvchilarni qamrab olgan idoralararo komissiya faoliyat ko‘rsatadi. “Ishchilarning vakillari to‘g‘risida”gi 1971 yilgi 135-sonli konvensiya, “Jamoa shartnomalari to‘g‘risida”gi 1981 yilgi 154-sonli konvensiya ham imzolangan. 2013-2020 yillarda O‘zbekiston bolalar va majburiy mehnatni bartaraf etishda katta natijalarga erishdi²⁹. 2017 yilda O‘zbekiston Senatining kafolatlangan mehnat huquqlari bo‘yicha komissiyasi tashkil qilindi.

BMT 1990 yildan boshlab inson taraqqiyoti bo‘yicha hisobotlarni nashr qilib, bu barqaror taraqqiyotni ta‘minlash kafolatlari sifatida faol ijtimoiy-iqtisodiy siyosat olib borishga xizmat qilmoqda. 1993 yildan jahon miqyosida inson taraqqiyotining ko‘rsatkichi - inson taraqqiyoti indeksi ishlatilmoqda. 1994 yildan boshlab inson xavfsizligi taraqqiyot nuqtai nazaridan tahlil qilinib 1999, 2005 yillarda Markaziy Osiyoning besh mamlakatini qamragan ma‘ruzalar tayyorlandi. Inson taraqqiyoti quyidagi omillarga bevosita bog‘liqdir: 1) teng huquqlilik; 2) ijtimoiy jihatdan minimal darajada kerak bo‘lgan barcha qulayliklarga ega bo‘lishlari (toza suv masalasi bo‘yicha); 3) ta‘limga bo‘lgan teng imkoniyatlarning tan olinishi; 4) teng taqsimlanish.

Tojikistonda XX asrning so‘nggi o‘n yilligi ayanchli kechdi. Bu mamlakatdagi fuqarolar urushi salbiy oqibatlariga olib keldi. Afg‘onistondan chiqqan narkotrafikning tranzit punktiga aylangan mamlakatda OIV/OITS bilan bog‘liq keskin vaziyat vujudga kelgan. 2021 yilda Afg‘onistonda rekord hosil – 6,200 tonnadan ziyod geroinning yetishtirilishi chegaradosh mamlakatlarga salbiy ta‘sir qilmoqda³⁰. 2022 yilning 14 dekabrda Tojikiston tashabbusiga ko‘ra Bosh Assambleya 2025 yilni “Muzliklarni himoya qilish xalqaro yili” deb e‘lon qilindi.

Ijobiy tendensiya sifatida Turkmaniston tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasi 2008 yil 19 dekabrda qabul qilgan “Energiya manbalarining

²⁴ Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси // <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2>

²⁵ Бюро национальной статистики Республики Казахстан // <https://stat.gov.kz/>

²⁶ В Таджикистане на свет появился 10-миллионный житель // <https://asiaplustj.info/ru/news/tajikistan/society/20220723/v-tadzhikistane-na-svet-poyavilsya-10-millionnii-zhitel>

²⁷ Национальный статистический комитет Кыргызской Республики // <http://stat.kg/ru/>

²⁸ Berdimuhamedov G. Regional Consensus the Only Prospect for Tackling Environmental Issues <http://tdh.gov.tm/news/en/articles.aspx&article14215&cat26> Date of access 24.08.2018

²⁹ Astrup J. 2020 Third-party monitoring of child labour and forced labour during the cotton harvest in Uzbekistan. International Labour Organization. –Geneva. 2021. P. 71.

³⁰ Opium Cultivation Afghanistan 2022 // https://www.unodc.org/documents/crop-monitoring/Afghanistan/Opium_cultivation_Afghanistan_2022.pdf

ishonchli va barqaror tranziti va uning xalqaro hamkorlikni og‘ishmay rivojlantirishni ta‘minlashdagi roli” rezolyusiyasini ko‘rsatishimiz mumkin³¹. Bunda samarali transchegaraviy suv boshqaruvi, konstruktiv dialoglarni aniqlab oladigan muzokaralar va hamkorlik strategiyalarini amalga oshirish talab qilinadi³². 2017 va 2021 yillarda Turkmaniston tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasida barqaror transport-tranzit tizimlarini shakllantirish maqsadida rezolyusiyalar qabul qilindi.

